

RAQS SAN'ATIDA IJRO MAHORATI

*Ulug'bek Doulov**O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi
Urganch filiali talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqs san'atidagi ijro mahorati va ushbu mahorat maktabining tashkil topishi, shakllanishi va rivojlanib borishi milliy raqs san'ati qiyofasiga, o'ziga xos va zamon bilan hamnafas rivojlanishiga zamin yaratuvchi omillar haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: baletmeyster, raqs, mahorat, obraz, aktyor, ijro, teatr, sahna.

ИСПОЛНИТЕЛЬСКОЕ НАВЫК В ИСКУССТВЕ ТАНЦА

*Улугбек Доулов**Государственная хореография Узбекистана
Студентка Ургенчского филиала академии*

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы создания, становления и развития исполнительского мастерства в искусстве танца и факторы, создающие основу для развития национального танцевального искусства, его уникального и актуального развития.

Ключевые слова: балетмейстер, танец, мастерство, образ, артист, спектакль, театр, сцена.

PERFORMANCE SKILL IN THE ART OF DANCE

*Ulugbek Doulov**State choreography of Uzbekistan
Student of the Urgench branch of the Academy*

Annotation: This article deals with the creation, formation and development of performing skills in the art of dance and the factors that create the basis for the development of national dance art, its unique and current development.

Key words: choreographer, dance, skill, image, artist, performance, theater, stage.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, qator sohalar kabi raqs san'ati ham tamoman yangi yo'l, yangi rivojlanish tamoyiliga o'tdi. Raqs san'atiga davlatimiz rahbari tomonidan alohida e'tibor qaratilganligi bu sohada rivojlanish, ko'plab izlanish, yangi va yaxshi asarlarning yaralishiga turtki bo'lmoqda. Bunga yaqqol misol siqatida so'nggi yillarda qabul qilinayotgan madaniyat va san'at sohasiga oid qaror va farmonlar, tashkil etilayotgan turli ko'rik-tanlovlarni aytishimiz mumkin. Odamlarning ruhiyatiga madaniy hordiq ulashadigan va ma'naviy dunyosini boyitishga xizmat qiladigan raqs san'ati – borliqdagi voqeiliklar va insonlarning hissiyotlari, ichki kechinmalari, orzu-umid va dard hasratlari turli harakatlarda o'z aksini topgan. Ularda insonlarning hayot tarzi, shodliklari, qayg'ulari kabi murakkab ko'rinishlar, psixologik

holatlari ko‘pincha muhit bilan uyg‘unlashtirilib ifodalanadi. Uning qanday ko‘rinishga ega bo‘lishi esa albatta ijtimoiy hayot bilan chambarchas bog‘liq. Raqsda davrning ruhi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Har bir raqsda shaxsning tuyg‘ulari, g‘oyalari, o‘y-fikrlari va hattoki, hayotda nimaga ko‘proq intilishi ham namoyon bo‘lishi bilan birga, o‘zi yashab turgan davr xususida ham keng ma‘lumot berishi mumkin. Odatda go‘zal raqsni yaxshi san‘at asariga qiyoslaydilar. Bu bejiz emas. Agar haqiqatan ham raqqos yoki raqqosa o‘z ishining ustasi bo‘lsa, o‘zini raqsdan ayro tasavvur qila olmasa, uning ijrosi kishilarda chiroyli she‘riyatdek taasurot qoldiradi. Nafosat va malohat bilan ijro etilgan raqs uzoq vaqt muxlislar tilidan tiliga ko‘chib yuradi. Raqs san‘atida odatda harakatlar ramziy mazmunga ega. Xususan, o‘zbek merosiy raqslari nafaqat jozibador plastik harakatlari, balki falsafiy mohiyatga ega bo‘lganligi uchun ham boshqa xalq raqslari orasida ajralib turadi. Raqs san‘ati lahzalik san‘at, ya‘ni raqqos va raqqosalar ijrosi bir muddatgina davom etsada, u qalblarda yillar davomida saqlanadi, ba‘zan, umrboqiylikka yuz tutadi. Aynan shu jihatlari bilan ham raqs boshqa san‘at turlaridan farq qiladi. Qaysidir ma‘noda afzalliklarga ham ega. Raqs sintetik san‘at sifatida o‘zining rivoj topishida turli san‘at yo‘nalishlari musiqa, adabiyot, haykaltaroshlik, rassomchilik, teatr unsurlaridan keng ko‘lamda foydalanib kelgan. Professional raqs san‘ati o‘zining shakllanish bosqichida bir-biriga yaqin san‘atlardan tajribalarni singdirib olganligi bois qisqa vaqt ichida chinakam san‘atga aylanishga, an‘anaviy san‘atlar bilan bir safda turishiga imkon yaratildi. Raqs rivojlangani sari uning muayyan mamlakatdagi badiiy madaniyat tizimi bilan munosabatlari murakkablashib, chuqurlashib, o‘zaro ijodiy aloqa, o‘zaro yordamlashish xususiyatlarini kasb etadi. Bugungi kunga qadar ijro mahorati sirlariga oid ko‘plab ilmiy asarlar chop etilgan bo‘lib, ularning aksari raqs ijrosida aktyorlik sir asrorlarini yoritib beradi. Xatti-harakat orqali raqqos yoki raqqosa raqsning muhim elementi – obrazni yaratadi, asar voqealarini ifoda etadi.

Xatti-harakat – ma‘lum bir maqsadga yo‘naltirilgan, inson tomonidan sodir etiluvchi jarayondir. U ikki xil turda, ya‘ni jismoniy va ruhiy shaklga bo‘linadi. Fikrimizdan kelib chiqib aytish mumkinki, xatti-harakat raqs san‘atining asosiy xususiyatini belgilab beruvchi material hamdir. Raqqos yoki raqqosa bir vaqtning o‘zida ham ijodkor, ham o‘z san‘atining qiroli hisoblanib, bu jarayonda xatti-harakat, imo-ishora orqali ma‘lum bir obraz yaralishiga xizmat qiladi. Raqqos va raqqosalar xatti-harakat orqali sahnada jonli, tabiiy va shu bilan birga badiiy hayotni ifoda etadi. Voqealar tomoshabin ko‘z oldida sodir bo‘ladi. Raqqosa yaratayotgan obrazida ma‘lum daqiqalarda yashaydi. Bunda u yuz qiyofasi va nigohidagi eng kichik o‘zgarishlargacha namoyon qilishi zarur. Shuning uchun ham raqs san‘atida ichki hissiyotlarni ifodalashda yuz mimikalari, nigoh, hattoki uning olgan nafasigacha muhim rol o‘ynaydi.

Raqqosa o‘z obrazini to‘laqonli ijro eta olishi uchun o‘z rolini chuqur tahlil qilgan, obraz xarakteri ustida ishlagan bo‘lishi kerak. Sahnada ijro boshlangach voqealar to‘xtamay bir maromda kechadi. Ana shu jihatdan ham raqqosa o‘z obrazi holati, asar voqeligiga bir kirib olgach, ana shu voqelikda muntazam “Yashab” raqs ijro etib boradi. Bizga ma‘lumki, yaxshilik ham yomonlik ham, sevgi ham nafrat ham juda kuchli insoniy hissiyotlardir. Baletmeyster ana shu insoniy hissiyotlar asosida o‘lmas asarlarini yaratar ekan, uning ijrochi raqqos va raqqosalari uchun sahnada ham,

tomoshabin nigohida ham, kamera qarshisida ham kuchli “Qo‘llanma” ya’ni hissiyot asosidagi yetakchi xatti-harakat orqali ijro san’atini namoyon etish imkoniyatini meros qilib qoldiradi.

San’at tushunchasi paydo bo‘lganidan buyon raqs san’ati ham turli bosqichlarni boshidan kechirdi. Albatta, o‘zbek raqs san’ati o‘z tarixi davomida turli siyosiy bo‘htonlar, ma’naviy inqirozlarni boshidan kechirganini tan olish lozim. Biroq, shunga qaramay, hamma davrlarda, har qanday sharoitda ham milliy raqs san’ati qiyofasi, o‘ziga xos an’analari saqlanib qoldi va rivojlanishda davom etmoqda. Mashg‘ulot xonalari katta sahna va sahna ortidagi jarayonlar, ijrochilik mahorati maktabining tashkil topishi, shakllanishi va rivojlanib borishi milliy raqs san’ati qiyofasiga, o‘ziga xos va zamon bilan hamnafas rivojlanishiga zamin yaratdi. Milliy raqs san’ati tarixi va uning rivoji haqida fikr yuritilganda bevosita o‘zbek milliy teatr san’ati va aktyorlik mahorati maktabini ham yoddan chiqarmaslik darkor. Boisi, raqs san’ati ana shu mahorat maktabi an’alaridan suv ichadi. Milliy mahorat maktabi san’ati poydevori mustahkam va kuchli bilim, an’analarga suyanadi. Bu esa o‘z navbatida raqs san’ati qiyofasining shakllanishi, rivoj topishi va o‘ziga xosligini ta’minlashga xizmat qiladi. Raqs san’ati rivojiga o‘z hissasini qo‘shadi. Har bir davr har bir jarayonda aktyorlik singari raqs ijrochiligi kasbi ham turli qiyofalarda shakllanib bordi. O‘zbek milliy raqs san’atining ko‘plab ulug‘ darg‘alari o‘z ijodlarida aktyorlik mahorati sirlaridan keng foydalanganligi sababli ham o‘lmas asarlar – merosiy raqs tashkil topdi. Shu bilan birga bugungi kunda milliy raqs san’ati o‘zining jilvadorligi, milliy qadriyatlarini, an’analari, ijro uslublarining taraqqiy etishida o‘ziga xos o‘rin tutib kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abrayqulova N. “Raqs jamoasi bilan ishlash uslubiyoti” – T. 2003 y.,
2. “O‘zbekiston Milliy entsiklopediyasi” davlat nashriyoti., T – 2004
3. Munavvara Abdullayeva “Dramatik teatr va kinoda aktyorlik mahorati” Toshkent. “Tafakkur qanoti” nashriyoti. 2011
4. E.Y. Saitova, N.E. Abrakulova “Xoreografiya va raqs san’ati asoslari” – T. 2015.128b
5. J.G‘aniyev Markaziy Osiyo san’ati tarixi-Toshkent 2021 199b.